




G'AFUR G'ULOM MAHORATLI TARJIMON

Aslonov Yosin Farrux o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti

3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18739660>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 22-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 23-fevral 2026 yil

KEY WORDS

G'afur G'ulom, badiiy tarjima, tarjimonlik mahorati, jahon adabiyoti, Shekspir tragediyalari, obrazlar xarakteri, muallif uslubi, realistik tasvir, o'zbek adabiy tili.

ABSTRACT

Mazkur maqolada G'afur G'ulomning o'zbek adabiyotidagi tarjimonlik faoliyati tahlil qilinadi. Unda adibning badiiy tarjimaga ijodiy yondashuvi, tarjima jarayonida asarning g'oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatlari hamda muallif uslubini saqlashga bo'lgan intilishi yoritiladi. G'afur G'ulom tomonidan Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Shekspir kabi jahon adabiyoti namoyandalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishdagi mahorati ko'rsatib beriladi. Ayniqsa, Shekspir tragediyalarining tarjimasida obrazlar xarakterini, his-tuyg'ular nutqini va dramatik harakatni to'liq aks ettirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada tarjimada personajlar erkinligi, nutqning jonliligi va realistik tasvir muhim mezon sifatida baholanadi. Tadqiqot G'afur G'ulomning so'z san'ati ustasi va yetuk tarjimon sifatidagi o'rnini asoslashga xizmat qiladi.

Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fukrsat g'animatdir, shoh satrlar-la,
Bezamoq chog'idir umr daftarin.
G'afur G'ulom.

O'zbek adabiyotida tarjima bilan shug'ullanmagan ijodkorning o'zi yo'q bo'lsa kerak. Birgina farqi, ayrim qalamkashlar faqat tarjima orqali tanilgan bo'lsa (Qodir Mirmuhamedov, Nizom Komilov), yana bir toifa ijodkorlar adabiy merosining yarmini tarjima tashkil etadi (Cho'lpon, Mirzakalon Ismoilov, Mirtemir). Va nihoyat, yana bir toifa adiblar borki, ularning qalamiga mansub asarlar orasida tarjimalar ko'p bo'lgani bilan, afkor omma ularni mutarjim deb emas, "sof milliy ijodkor" sifatida taniydi (Habibiy, Said Ahmad).

G'afur G'ulomni uchinchi toifaga mansub ijodkorlardan desa bo'ladi.

O'zbek milliy adabiyoti taraqqiyotida adibning ijodi muhim o'rin egallaydi. U nafaqat shoir va nosir, balki badiiy tarjima sohasida ham katta xizmatlar qilgan adib sifatida tanilgan. G'afur G'ulom jahon adabiyotining yetuk namoyandalari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali milliy adabiyotimizning mavzu doirasi va badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Adib tarjima jarayonida asarning mazmunini, badiiy tuzilishini va muallif uslubini saqlash

masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning tarjimalarida obrazlarning xarakteri, nutq madaniyati va emotsional ta'sir kuchi yetakchi o'rin tutadi. G'afur G'ulom Shekspir tragediyalarini tarjima qilishda dramaturgning sahnaviy tafakkurini va realistik tasvir uslubini chuqur o'rgangan. Bu jihatlar adibning tarjimonlik mahoratini ilmiy asosda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

G'afur G'ulom ijodining o'ziga xosligi shundaki, unda o'zbek adabiy tilining o'tmishi va bugungi holati, tilning umumiy yo'nalishi va taraqqiyot qonuniyatlari, tilda kechayotgan jarayonlar keng miqyosda namoyon bo'ladi. G'afur G'ulom so'z san'ati ustida ko'p mehnat qilgan. U milliy adabiyotimizga kerakli so'zlarni tanlashda konkret obrazdan foydalana bilgan ijodkordir. G'afur G'ulom o'z asarlarida real hayot obrazi va jonli kadrlarni ko'rsatadi, bu esa odamda hayajon tuyg'usini uyg'otadigan jozibali manzara yaratish maqsadida so'zning emotsional kuchini oshiradi.

G'afur G'ulom tarjimaiy holida shunday yozadi: "1928-yil 15-sentabrdan boshlab, "Kambag'al dehqon" gazetasida sekretar bo'lib xizmatga kirdim... Biror kun yo'q ediki, "Qizil O'zbekiston"da, "Kambag'al dehqond"da, "Mushtum"da yo boshqa jurnal, gazetada biror maqola, feletonim, ocherkim yo she'rim bosilmasa... Ijodim yana-yana yangi ilhom bilan avj olib borar edi". Shu tariqa, adabiyot qismati ekanligini anglagan G'afur G'ulom tarjimon sifatida ham o'z iste'dodini namoyish qila oldi. U Jomiy, Bedil, Rudakiy, Lutfiy, Shayx Sa'diy, Shekspir, Lope de Vega, Gogol, Mayakovskiy, Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Demyan Bedniy, Taras Shevchenko, Kirilov, Nozim Hikmat asarlarini o'zbek tiliga mohirlik bilan o'girdi. Ayniqsa, Vladimir Mayakovskiy ijodi G'afur G'ulomning ijodiy olamining paydo bo'lishiga, badiiy didining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. G'afur G'ulom o'z maqolalaridan birida shunday deydi: "Men rus klassiklarini bilaman, ularni yaxshi ko'raman, ularning ko'plab asarlarini ona tilimga tarjima qilganman. Ammo men aytmoqchimanki, "o'zim uchun men Mayakovskiyning shogirdiman", u she'rning so'z boyligi, timsoli va tuzilishi sohasida eng yorqin va cheksiz imkoniyatlarni ochdi.

G'afur G'ulom turli davrlarda G'arb adabiyotining ko'plab asarlarini ham o'zbek tiliga tarjima qilgan. Adib badiiy tarjima masalasiga ijodiy yondashgan, asarning g'oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatlari, muallif fikri, til va uslub jihatlarini aks ettirish "sirlarini" yaxshi bilgan so'z ustasidir. Xususan, ingliz dramaturgi Shekspir tomonidan nafis did bilan yaratilgan o'lmas obrazlarni o'zbek tilida san'atkorning o'ziga xos mahorati bilan qayta tikladi. Shoir 1940-yilda "Otello", 1956-yilda "Qirol Lir" tragediyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan. G'afur G'ulom o'z ishiga chuqur sadoqat bilan yondashadi. Shekspir uni ideal obrazlar yarata olganligi bilan hayratga soldi. G'afur G'ulom Shekspirni sahna asari yaratish san'atining shohi deb atagan edi. U tarjima tajribasida ingliz dramaturgining o'ziga xos uslubini saqlab qolish, o'zbek tilida "o'z yo'lida" qolish uchun astoydil harakat qildi. Buning uchun shoir Shekspir pyesalarini sinchiklab o'qidi, uning asarlari tarixi, uslubi va tekstologiyasini qunt bilan o'rgandi.

Sheksporning "Otello" tragediyasi bilan G'afur G'ulom tomoshabinni xushnud etishda ona tili imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalanadi. U buyuk dramaturg yaratgan asarlar qalbiga, obrazlar olamiga chuqurroq kirib borish uchun tragediyaning bir necha ruscha tarjimalari bilan bilan tanishadi. Qahramonning tarjimada aks etishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarjimada asar qahramoni obrazini to'g'ri yetkazish ko'pincha butun asar tarjimasining taqdirini belgilab beradi. G'afur G'ulom tarjimada Shekspir xarakterini tiklashda asosiy maqsadiga erishdi: unda asl nusxadagi kabi personajlar erkin harakatlanadi. Tarjimaning yana bir yutug'i shundaki, tragediyada hislar nutqi juda yaxshi aks ettirilgan. Shekspir qahramonlari xayoliy tarkibda emas, balki bir-biri bilan jonli suhbatda, muhokamada bo'lishadi.

G'afur G'ulom Lope de Veganing "Qo'zibuloq qishlog'i", Fridrix Shillerning "Vilhelm Tell" dramalari G'afur G'ulom tarjimasida sahna yuzini ko'rgan. Shu bilan bir qatorda V.Katayevning "Soldat frontdan qaytarkan", B.Lavryonovning "Dengizdagilar sharafiga",

Nozim Hikmatning “Bir sevgi afsonasi”, G.Mdivanining “Front bo‘ylab buyruq”, B.Slivkoning “Mushfiqiy” pyesalarini ham mohirona tarjima qilgan. Ammo hali bu ro‘yxatga qo‘shilmagan yana o‘nlab poemalar, teatr va radiopostanovkalar uchun turli yillarda tarjima qilingan drama asarlari ham behisob. Bularning barchasiga xos bo‘lgan bir jihat, ta‘bir joiz bo‘lsa, G‘afur G‘ulomning “o‘girmachilik uslubi” shundayki, ushbu tarjimalar tili sodda, ifodasi jaydari va o‘zbekona. G‘afur G‘ulom hech bir o‘rinda tarjima tilini zo‘riqtirmaydi, murakkab va gajakdor iboralar bilan o‘zbek o‘quvchisini qiynamasdan, fikrni erkin va sarbast turib taqdim etadi.

G‘afur G‘ulomning yuqorida darj etilgan talay tarjimalari orasida Lermontovning mashhur “Borodino” she‘ri hamda “Hoji Abrek” dostoni ham bor. Diqqatingizga ustoz tarjimasida M.Yu.Lermontovning “BORODINO” she‘ridan parchani havola etamiz.

Mixail LERMONTOV

BORODINO

– Qani, amakijon, aytib beringiz,
O‘t ketib, o‘rtangan Moskva bejiz –
Faranglarga berilmagan-ku?
Axir bo‘lgandir-ku beomon urush,
Bo‘lganda ham qanday, ketguday es-hush
Borodino kuni Rossiyaning beiz –
chiqmas yodidan mangu!

– Ha, bizning zamonda mardlar bor edi,
Sizga o‘xshamasdi, shiddatkor edi.
Sizlar botir emassiz.
Ularning qismati bo‘lmishdi yomon
Talay mardlar maydon aro berdi jon.
Bo‘lmasaydi taqdir amri beomon
Ketmas edi Moskva, essiz!

1930-yillarda O‘zbek adiblarining ijodida adabiyotga yangicha qarash usullari kuchayadi. Sobiq ittifoq iskanjasida qolgan ko‘pgina millat ziyoliylari zamonaviylashuv yo‘lini tanlashadi. Shu o‘rinda, mahalliy aholi hayotiga rus tilining, adabiyotining bostirib kirib kelishi ijodkorlar tajribasida alohida o‘rin tutdi. Mamlakatda yangi, rus tuzem maktablari faoliyat ko‘rsata boshladi. Shuningdek, zavod, fabrikalar ishga tushirildi, temir yo‘l magistrallari qurilishi boshlandi. Shu bilan birga, jadid milliy adabiyoti ham tez suratlarda rivojlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, G‘afur G‘ulomning tarjimonlik faoliyati uning adabiy merosida muhim o‘rin tutadi. Adib jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali milliy adabiyotimizning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Tarjimalarda muallif uslubi, obrazlar xarakteri va his-tuyg‘ular nutqi to‘liq saqlangan. Ayniqsa, Shekspir tragediyalari tarjimasida personajlar erkinligi va sahnaviy harakat muvaffaqiyatli aks ettirilgan. G‘afur G‘ulom tarjimada murakkab ifodalardan qochib, sodda va o‘zbekona tilni ustuvor qo‘ydi. Uning tarjimalari jonli nutqi va realistik tasviri bilan ajralib turadi. Adib badiiy tarjimaga ijodiy yondashib, asarning g‘oyaviy va badiiy yaxlitligini ta‘minladi. Bu jihatlar G‘afur G‘ulomni mahoratli tarjimon sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. “G‘afur G‘ulom ijodida milliy va umuminsoniy g‘oyalar uyg‘unligi / Harmony of national and universal ideas in the work of Gafur Gulyam / Гармония национальных и

общечеловеческих идей в творчестве Гафура Гуляма” // Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: TDYU, 2023. – 272 bet, 150-152-181-bet.

2. G'afur G'ulom / Mukammal asarlar to'plami / XII Tomlik, Tom X / O'zbekiston SSR Akademiyasi, / O'zbekiston SSR Nashriyoti, 700047 / Dramaturgiya / 1988-yil. – 425 bet.

3. G'afur G'ulom tarjimalari. Zuhridin Ismoilov. “Jahon adabiyot jurnali, № 5, 2013-yil.



**INNOVATIVE
ACADEMY**